

# Yirtqich qushlarning ekologik ahamiyati

Xurshida Nurmatova Sattorova  
Termiz davlat-muzey qo‘riqxonasi

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada yirtqich qushlar, yirtqichlar turkumi, yapaloqqushlar turkumi, tukli yirtqichning muhim xususiyatlari, yirtqichlarning afzalliklari haqida to‘liq bayon etilgan.

**Kalit so‘zlar:** yirtqich qushlar, karlik lochin, yapaloqqushlar, tukli yirtqich, tasqara, boyo‘g‘li, ukki, mifologiya, durbin, simyog‘och

## Ecological importance of birds of prey

Khurshida Nurmatova Sattorova  
Termiz State-Museum Reserve

**Abstract:** In this article, birds of prey, species of birds of prey, species of birds of prey, important characteristics of feathered birds of prey, advantages of birds of prey are fully described.

**Keywords:** birds of prey, peregrine falcon, butterfly, feathered predator, owl, owl, ukki, mythology, binoculars, albino

Kirish. Yirtqich qushlar - qushlar sinfining turkumi hisoblanadi. Yirtqich qushlarning tanasi yirik yoki o‘rtacha kattalikda, eng mayda vakili-karlik lochin qanotining uzunligi 9-10 sm, eng yirik Amerika tasqarasining qanoti 115 sm, yoyilganida 2,5-3 m, vazni 8-12 kg. Tumshug‘i kuchli shakllangan, uchki qismi ilmoqqa o‘xhash egilgan bo‘lib, o‘ljas terisini yirtish va etini uzib olishga moslashgan. Oyoqlari o‘rtacha uzunlikda, panjalari kuchli rivojlangan, tirnoqlari o‘tkir, ilmoqsimon egilgan bo‘ladi. Tirnoqlari yordamida chang solib o‘ljasini o‘ldiradi va uni ushlab turadi. Yirtqich qushlarning tumshug‘i asosidagi terisi patsiz, ochiq rangli bo‘lib, tanasining boshqa qismidan ajralib turadi. Patlari tig‘iz bo‘lishi, ko‘zları boshining 2 yonida joylashganligi bilan yapaloqqushlardan ajralib turadi. Jig‘ildoni juda keng, tana vaznining deyarli yarmiga teng keladigan oziqni sig‘diradi.

Asosiy qism. Yirtqich qushlarning ikki turi mavjud bo‘lib, kunduzgi yirtqich qushlar va tungi yirtqich qushlar boyqushlar deb nomlanadi. Ikki turdagи qushlar tabiatda bir xil funktsiyaga ega va ikkala turi ham yirtqich hayvonlardir, birgina farqi shundaki, kunduzgilari kunduzi faol, tungilari esa tunda yashaydilar. Yirtqich qushlar, umuman olganda, tabiatda muhim rol o‘ynaydi, ular tabiatan yolg‘iz

ovchilardir va ularni o‘z turlarining boshqalari bilan ko‘rish juda keng tarqalgan emas. Ular go‘zal va boshqa turlardan ajralib turish qobiliyatiga ega, shuning uchun ular odamlarning hayratiga sazovor bo‘lib, qadim zamonlardan buyon butun dunyodagi turli xalqlarning mifologiyasi va madaniyatiga kiritilgan.

Yirtqich qushlar, asosan, umurtqali hayvonlar bilan oziqlanadi. Ularning tanatuzilishi va xatti-harakati o‘ljani qidirib topish va ushlab olishga moslashgan. Xususan, uzun va o‘tkir tirnoqlarining uchi ilmoqqa o‘xshash qayrilgan bo‘lib, o‘ljani ushslash va o‘ldirishga moslashgan; qisqa baquvvat va uchi pastga qayrilgan tumshug‘i esa o‘ljasi etini yulib olishga sharoit yaratadi. Yirtqich qushlarning ko‘zi o‘tkir bo‘lgani uchun o‘zining o‘ljasini uzoqdan ko‘rib oladi. Yirtqichlar juft bo‘lib yashaydi. Yirik qushlarning jufti butun hayoti mobaynida saqlanib qoladi. Ular daraxtlarga va baland qoyalarga uya qurib, jish jo‘ja ochadi. Yirtqich qushlar kunduzgi yirtqichlar va yapaloqqushlar turkumlariga ajratiladi. O‘rta Osiyo hududida kunduzgi yirtqichlardan qora kalxat, miqqiy, tasqara, jo‘rchi, burgut, qarchig‘ay va boshqalar uchraydi. Qora kalxat vohalar, to‘qaylar va tog‘larda, ya’ni daraxtlar bo‘lgan barcha joyda uchraydi. Uchib borayotgan kalxatni ayri dumiga qarab oson ajratib olish mumkin. Kalxat Markaziy Afrika va Janubiy Osiyoda qishlaydi, mart oylarida uchib kelib, daraxtlarning shoxiga uya quradi. Kalxat juda foydali qush bo‘lib, asosan baqalar, kemiruvchilar, turli xil hasharotlar, hamda, kushxonalarning tashlandiqlari va o‘laksalar bilan oziqlanadi; mayda qushlarni ham tutib yeydi. U havoda baland uchib, o‘lja qidiradi.

Tasqara - yurtimizda uchraydigan qushlarning eng yirigi hisoblanadi. Tanasining uzunligi 1,5 m ga, qanotlarini yozganda kengligi 3m gacha bo‘ladi, uning og‘irligi 6-12 kg, boshi va bo‘ynidagi patlari juda siyrak bo‘ladi. Tasqarani uchganida keng va uzun qanotlaridagi oqish patlarini panjasimon yozilishiga qarab oson bilib olish mumkin. U havoda uzoq vaqt qanot qoqmasdan ucha oladi, ammo yerda beso‘naqay qadam tashlaydi. Tasqara hayvonlarning o‘laksasi bilan oziqlanadi. Sayhonlik ustida soatlab uchib, o‘laksa axtaradi. Tasqaraning tirnoqlari kuchsiz bo‘lganidan tirik hayvonlarga hujum qilolmaydi. Biroq juda kuchli, uchi qayrilgan tumshug‘i bilan hayvonlar terisini yirta oladi. Ko‘plab kunduzgi yirtqichlar zararkunandalar, kemiruvchilar va hasharotlarni o‘ldiradi, qishloq xo‘jaligiga foyda keltiradi. Boshqalar, asosan, kasal va qari hayvonlarni o‘ldiradi, boshqa hayvonlarning kasallanishini oldini oladi va hayvonlarni sog‘lom saqlashga yordam beradi. Ammo ekologik qushlarni chindan ham yirtqichlar guruhiга kiritish odatiy hol hisoblanadi, ularning a’zolari nafaqat go‘shtni ziyofat qilishni yoqtirishadi, balki ularni qanotlari yordamida, havodan o‘lja qidirib topib olishadi. Bundan tashqari, tabiatning o‘zi ularni o‘ljalari bilan kurashishga yordam beradigan qurol-yarog‘lar bilan jihozladi. Bular kavisli, kuchli, o‘tkir tirnoqlar va tumshuq bo‘lib, tukli yirtqichning muhim xususiyatlari hisoblanadi. Ulardan birinchisi hujum va transfer

uchun, ikkinchisi esa o‘ljani o‘ldirish uchun xizmat qiladi. Lekin ular ham yirtqich qushlar yuqoridagilarni har tomondan qondiradigan, asosan oziq-ovqat turlari va ov qilish usuli bo‘yicha kichik guruhlarga ajratiladi.

Kunduzgi yirtqich qushlarning tanasi tungi qushlarnikiga qaraganda nozikroq: tumshug‘i, shuningdek, tirnoqlari ko‘proq ko‘rinadi, yuzi esa yumaloq yoki tekis emas. Barcha yirtqich qushlar ov qilish uchun ayniqsa rivojlangan tuyg‘uga ega, ya’ni ko‘rish. Kechasi eshitish muhim bo‘lganidek, kunduzi ham ko‘rish muhim. Tasvirning aniqligi odamlarnikiga qaraganda ancha yaxshi va ular uzoq masofalarda harakatlanuvchi o‘ljani ham topishlari mumkin. Agar yirtqich qushlarning ko‘rishi bilan odamning ko‘rishi o‘rtasida taqqoslansa, ular 8 marta yaxshi ko‘radi, deyish mumkin, bu 8 marta durbin bilan ko‘rishga teng bo‘ladi.

Yapaloqqushlar turkumi - tunda hayot kechirishga moslashgan yirtqichlar sanaladi. Ularga faqat qorong‘i tushgandan keyin ov qiladigan yapaloqqushlar: ukki, boyo‘g‘li, boyqushlar kiradi. Yapaloqqushlar tumshug‘ining uchi qayrilgan, tirnog‘i o‘tkir hisoblanaib, tirik o‘ljani tutishga sharoit yaratadi. Ularning ko‘zлari katta, ko‘z qorachig‘i keng ochiladi. Shuning uchun g‘ira-shira yorug‘likda ham mayda hayvonlarni oson ko‘ra oladi. Sezgir quloqlari esa tunda shitirlagan ovozni ham ilg‘ab oladi. Patlari g‘ovak va yumshoq bo‘lganidan uchganida ovoz chiqmaydi. Tungi yirtqichlarning yuzi yapaloq yuraksimon bo‘lganidan yapaloqqushlar turkumiga kiritilgan.

Ukki - yapaloqqushlar orasida eng yirigi. Boshining ustida quloqqa o‘xhash ikki to‘p pati dikkayib turadi. Ukki ko‘proq turli kemiruvchilar bilan oziqlanadi, ba’zan o‘rgimchaklar va ayrim qushlarni ham tutib yeydi

Boyo‘g‘li - ukkiga nisbatan ancha kichik. Kechqurunlari simyog‘och yoki daraxtlarning qurigan shoxida o‘tirib olib, o‘lja poylaydi. Bu qush o‘simliklarga ziyon keltiradigan qo‘ng‘iz, chigirtka va kemiruvchilarni qirib, juda katta foyda keltiradi.

Yirtqich qushlarning ekologik ahamiyati shundaki, ular yirtqich bo‘lib, o‘ljalarini juda ehtiyyotkorlik bilan tanlaydilar. Yirtqich qushlar o‘zlarini oziq-ovqat bilan ta’minalash uchun ko‘p qiyinchiliklarga duch kelmaydilar, ular zaif va eski o‘ljalarini tanlaydilar, chunki ularni tutish osonroq, oziq-ovqat sifatida xizmat qiluvchi quyon, sichqon va boshqa hayvonlar turlari uchun qulaydir. Zaif elementlarning yo‘qolishi bilan aholi kuchayadi. Bu g‘alaba qozonish munosabatlaridir. Shu tariqa tabiatning harakati ochib beriladi, yirtqich qush jo‘jalarini parvarishlash va tuxum qo‘yish uchun mazali taom va quvvatdan foydalanadi. Biroq, kunduzi va tungi yirtqich qushlarni bu ulug‘vor mayjudotlarning qadr-qimmatini bilmagan odamlar yo‘q qilgan paytlari ham bo‘lgan. Bugungi kunda barcha yirtqich qushlar qonun bilan himoyalangan va ularning har qandayiga yoki uyalariga zarar etkazgan odamlar jarimaga tortiladi va og‘ir hollarda qamoqqa tushishi mumkin

Xulosa. Xulosa qilib shuni ta'kidlash kerakki, qushlar hasharotlar va kemiruvchilarni zararkunanda bo'lganida o'ldiradi, ularning tabiatdagi sonini cheklaydi. Qushlar ham ko'plab hayvonlar uchun ozuqa hisoblanadi. Ular meva va urug'lar bilan oziqlanadi va o'simliklarning tarqalishiga yordam beradi. Yirtqichlarning o'zлari ham ta'mga ko'ra tasniflanishi mumkin. Masalan, ularning ozuqasi turli xil hasharotlar, mollyuskalar, qisqichbaqasimonlar, baliqlar, ilonlar, qushlar va hayvonlar bo'lishi mumkin.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. O. Mavlonov. - Tuzatilgan va to'ldirilgan to'rtinchi nashri. -T.: «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2017. - 208 b.
2. Ahmedov M.H., Oripov J., Zokirov I. Farg'ona vodiysining muhofazaga olingan hayvonlari. - Farg'ona, «Universitet» 2008. - 74 b.
3. Otaboev Sh.T. «Inson va biosfera» T., 2004.
4. A.To'xtaev«Ekologiya». T., «O'qituvchi»